

## **«Asaka» bank ko'magida tadbirkor bo'lamiz**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, tadbirkorlik harakatining umumiy ravnaqiga qo'shadigan hissasini ko'paytirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonini qabul qilinishi ayni sohada izchil amalga oshirilayotgan islohotlarni yana bir necha pog'ona yuqoriga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida ishbilarmonlik yo'lini tanlagan vatandoshlarimizning, ayniqsa yoshlarning safi yanada kengayishiga keng sharoit yaratilmoqda.

Aytish joizki, mazkur jarayonda bank-moliya muassasalari tizimi ham faol ishtirok etmoqdalar. Joylarda banklarni o'zlarining yaqin ko'makchisi va suyanchig'i deb bilayotgan tadbirkorlar imtiyozli kreditlar evaziga ko'zlagan maqsadlariga erishmoqdalar. Buni "Asaka" aksiyadorlik tijorat banki Navoiy viloyat filialining tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, mijozlar bilan ishlash borasidagi ilg'or tajribalari misolida ham ko'rish mumkin.

Bank filiali bilan viloyatdagi qo'shma korxonalar va mahalliy tadbirkorlar o'rtasida ishonchli hamkorlik muhiti yaratilgan. Iqtisodiyotning turli sohalari uchun ajratiladigan kreditlar miqdori ortgani sayin bugunga kelib muassasa o'zining minglab doimiy mijozlariga ega bo'ldi.

Xususan, keyingi yillarda bank filiali tomonidan mijozlar uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratishga alohida ahamiyat qaratilyapti. Ishbilarmonlar uchun alohida tadbirkorlar xonasi, plastik kartalar bilan ishlash bo'limida mijozlar uchun maxsus kutish zali, aholining kommunal to'lovlarini amalga oshirishlari uchun maxsus xodimlar birlashtirilganligi shular jumlasidandir. Bu kabi e'tibor tufayli aholining bankka bo'lgan ishonchi ortib bormoqda.

2017 yilning 1 yanvar holatiga bank filiali kredit portfeli hajmi 50,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Uning asosiy qismi uzoq muddatli kreditlardan iboratdir. 2016 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 52,1 mlrd. so'mdan ziyod miqdorda kreditlar ajratildi. Bu esa 2015 yilga nisbatan 1,3 baravarga ko'pdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2009 yil 28 yanvardagi «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari ijrosi yuzasidan 16,9 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Natijada, mahalliy iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi «O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga asosan tadbirkorlik faoliyati bilan

shug'ullanuvchi ayollarga ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish maqsadlariga 4,2 mlrd. so'mdan ziyod miqdorda kredit mablag'lari ajratildi. Bank sarmoyalari tufayli ayol tadbirkorlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, aholiga savdo va servis xizmatlarini ko'rsatish hamda boshqa tarmoqlar rivojlantirildi, oilaviy biznes, hunarmandchilik va kasanachilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkor opa-singillarimizni safi kengaydi. Buning natijasida ko'plab xotin-qizlar doimiy ish joylari bilan ta'minlandilar, demak-ki barqaror ish haqiga ega bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 21 dekabrda topshirig'iga asosan, respublikamizda uzumchilikni rivojlantirish, mavjud uzumzorlarning unumdorligini oshirish, mahsulotni qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan edi. Aytish joizki, "Asaka" bank tomonidan mazkur sohani rivojlantirish borasida dadil qadamlar tashlandi.

Jumladan, bank filiali tomonidan ham uzumchilikka ixtisoslashgan agrofirma hamda fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli shartlarda kreditlar taklif etilmoqda. Ayni paytda mazkur yo'nalish bo'yicha Xatirchi, Nurota, Konimex, Karmana va Zarafshon tumanlaridagi fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatilayotgan bo'lsa, kelajakda xizmat geografiyasi yanada kengaytirilishi rejalashtirilgan.

O'tgan yili uzumchilikni rivojlantirish maqsadida kichik biznes subyektlariga 1,6 mlrd.so'm miqdorida imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kreditlar ajratildi. Mijozlar uzoq muddatga berilgan kredit mablag'laridan uzumzorlarni barpo etish, sohaga doir texnika va texnologiyalar sotib olish maqsadlarida foydalanishdi.

—Mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatiga alohida e'tibor berilib, zarur shart-sharoitlar yaratilayotganligi biz tadbirkorlarga katta imkoniyatlar yaratmoqda,—deydi Navoiy shahrida faoliyat yuritayotgan **«Izumrud Kvant-Invest» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Ulug'bek Shodmonov.** —Bizning korxonamiz ham bu imkoniyatlardan unumli foydalanmoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni tashkil etish maqsadida biznes reja tuzdik va rejamizni amalga oshirish uchun «Asaka» bank Navoiy viloyat filialiga murojaat etdik. Qisqa muddatlarda ajratilgan bank kreditlari hisobiga xorijdan suv va energiya tejovchi zamonaviy uskunalar olib keldik va issiqxona tashkil etdik. Bu esa bizga iste'molchilar talabiga mos keladigan sifatli va ekologik toza qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishga keng imkoniyatlar yaratdi. Mazkur loyihani amalga oshirish natijasida korxonamizda 20 nafarga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bugungi kunda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, ularni ish bilan ta'minlash muxim ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz Rahbari tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan imtiyozlardan samarali foydalanish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. «Asaka» bank Navoiy viloyat filiali mutaxassislari kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan turli anjumanlar va tadbirlarda faol ishtirok etmoqdalar, yosh tadbirkorlarga imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar topshirilmoqda. Jumladan, "Farhod madaniyat saroyida"da o'tkazilgan anjumanda, "Mening biznes g'oyam", "Yosh tadbirkor yurtga madadkor" degan

bitiruvchilarga, ularning biznes g'oyalarini hayotga tadbiq etish uchun moliyaviy ko'mak berish maqsadida, imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar topshirildi. O'tgan yilda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga chorvachilik, asalarichilik, parrandachilikni rivojlantirish va issiqxonalar tashkil etish uchun imtiyozli shartlarda kreditlar ajratildi. Bank kreditlari tufayli ularning o'z ishlarini tashkil etish bo'yicha azaliy orzu-umidlari ro'yobga chiqdi. Hozirda ular oilalari farovonligini ta'minlab, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va yoshlarni ish bilan ta'minlashga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

—Biz yoshlarga yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida moliyaviy ko'mak so'rab «Asaka» bankiga murojaat etdim, — deydi Navbaxor iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish kasb hunar kolleji bitiruvchisi, **«Navoiy Humo» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, yosh tadbirkor Dadaxon Rahmonov.** —Bank tomonidan qisqa muddatda imtiyozli shartlarda ajratilgan kredit hisobiga qurilish materiallari ishlab chiqarishni tashkil qildik. Shahrimizdagi katta va kichik qurilishlarda biz ishlab chiqargan qurilish mahsulotlaridan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, 10 nafarga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilib, tengdoshlarimni ish bilan ta'minlashga muvaffaq bo'ldim. Shuni mamnuniyat bilan ayta olamanki, «Asaka» bank kreditlari biz kabi tadbirkorlik yo'lini tutgan yoshlarga katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. «Asaka» bankning moliyaviy ko'magida mulkdor bo'lib, jamiyatda o'z o'rnimizni topayapmiz. Shuning uchun ham bank xizmatlaridan minnatdormiz.

Davlatimiz Rahbari SH.Mirziyoevning «Bizning yana bir muhim vazifamiz – kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o'zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi» deb aytgan so'zlarini o'zlariga dasturilamal deb bilgan «Asaka» bank jamoasi tadbirkorlarga yanada keng imkoniyatlar yaratishga intilmoqda. «Asaka» bank Navoiy viloyat filialining malakali xodimlari Navoiy, Zarafshon shaharlaridagi va Xatirchi tumanidagi har bir xonadonga tashrif buyurib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun tushuntirish va tavsiyalar bermoqda hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan fuqarolarga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va kredit mablag'larini olish uchun zarur hujjatlarni tayyorlashda ko'mak bermoqdalar. Xususan, «Asaka» bank Navoiy filiali mutaxassisleri Navoiy, Zarafshon shaharlari va Xatirchi tumanidagi 12ta qishloq va mahalla fuqarolar yig'inidagi 8354ta xonadonga tashrif buyurib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun tushuntirish va tavsiyalar berdilar, 20106ta xonadonga tadbirkorlikka da'vat etilib murojaatlar yuborildi. Bu tadbirlar natijasida 660 nafar fuqaro tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirdi, 100 nafar fuqaroga 831 mln.so'm. miqdorida kreditlar ajratildi.

Muhtasar qilib aytganda, «Asaka» bank Navoiy viloyat filiali aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarga taqdim etilayotgan bank mahsulotlari va xizmatlari turlarini kengaytirish, sifatini yaxshilash va bank amaliyotlari tezkorligini yanada oshirish bo'yicha faol ishlar olib borishni maqsad qilgan. Bank filiali istiqbolli loyihalar, g'oyalar ustida tinimsiz izlanib, mijozlar ehtiyoji uchun

maqbul va qulay bo'lgan xizmat turlarini kengaytirib bormoqda. Bu esa ularning turmush farovonligini oshirish, Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish hamda turli iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etishda o'z samarasini bermogda.

## **Bank Axborot xizmati**